



Dilorom Yormatova

Qishloq xo'jalik fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

BOBUR VA BOBURIYLAR HAQIDA O'YLAR

ANNOTATSIYA

Jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyo xalqlari o'rtasida ma'lum va mashhurdir. Hazrati Boburning beqiyos ijodiy merosi nafaqat bizning milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti va davlatchiligi tarixida ham alohida ahamiyat kasb etdi. Xususan, boburshunoslik sohasida ko'plab tadqiqotlar, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar yiliga bir necha marotaba o'tkazilib, xorij mamlakatlaridan yirik olimlar, adabiyotshunoslar va boburshunoslar o'z izlanishlaridan kelib chiqib ma'ruzalar qilishmoqda. Jumladan, mazkur maqolada professor Dilorom Yormatovanning boburshunoslik sohasida uzoq yillar davomida olib borayotgan izlanishlari xususida so'z boradi.

Yillar davomida mamlakatimizda, ayniqsa, Andijon shahrida Zahiriddin Muhammad Bobur tug'ilgan kun – 14-fevral sanasi katta tantanalar va birdamlik bilan adabiyot va ilm-ma'rifat bayrami sifatida nishonlanadi. Bobur mirzoning yurtimizda muazzam haykallari o'rnatilganligi, ko'chalar, oromgohlar, maktablar va oliy o'quv yurtlari uning nomi bilan atalganligi va ona yurti – Andijon shahrida Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi va uning tasarrufidagi "Bobur va jahon madaniyati" kitob muzeyi faoliyat ko'rsatayotganligi, "Bobur ensiklopediyasi", "Bobur kulliyoti", "Бабур. Бабуриды. Библиография" deb nomlangan salmoqli asarlarning nashrdan chiqarilganligi, "Bobur va dunyo" jurnalining tashkil qilinganligi kabi jahonshumul ishlar o'zbek xalqininig shoiri va vatandoshiga bo'lgan buyuk ehtiromidir. Har yili 14-fevral kuni butun mamlakat bo'ylab juda katta tantanalar bilan nishonlanadi, shoh va shoirning poyiga gullar qo'yiladi. Xususan, 2023-yilning 25-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-20-sonli "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi

Dilorom Yormatova

Professor, Doctor of Sciences in Agriculture (DSc)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

THOUGHTS ABOUT BABUR AND THE BABURIANS

ABSTRACT

Zahiriddin Muhammad Babur, a prominent figure in world history, is celebrated as a great poet, encyclopedist, statesman, and skilled general. Extensive research has been conducted to study his life and activities and to promote his works both in our country and abroad. His creative legacy has had a significant impact on our national culture, and literary thinking, as well as on world literature and statehood. Regular research studies and national and international scientific conferences are held to delve into Babur's life and work, with contributions from leading scholars and literary critics from around the world. This article specifically focuses on the extensive research conducted by Prof. Dilorom Yormatova, in the field of Babur studies over many years.

qarori qabul qilindi.

Mamlakatimizda milliy rivojlanishning yangi bosqichiga – Uchinchi Renessans davriga qadam qo'yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda olislarda yashab, butun umri Vatan sog'inchi bilan o'tgan shoh va shoirning qoldirgan bebaho merosini chuqur o'rganish va ommalashtirish borasida katta ishlar olib borilmoqda. Chunki, oddiy xalqning o'z Boburiga mehri va muhabbati bo'lakcha, uning o'zi haqida eng to'g'ri so'zlarni yozib ketgan inson sifatida "Boburnoma" asarini ular yillar davomida o'qiydi, har bir o'quvchi o'ziga yangiliklarni bu kitobdan, Bobur qo'li bilan bitilgan muqaddas kitobdan topa oladi.

Kamina uzoq yillardan beri, Bobur xalqaro jamoatchilik fondi a'zolaridan biriga aylanib, ushbu buyuk avlodga xizmat qilishni ko'nglinga tugib qo'yib, boburiylar tarixini o'rgandim. Bir necha marta Hindiston safarlariga borib, boburiylar qurgan bebaho yodgorliklar poyida tiz cho'kdim, xayolga toldim. Ertalabdan kechgacha Toj Mahal poylarida o'tirib boburiylar avlodlari bilan xayolan suhbat qurdim. Qizil Qal'ada bo'lib Mumtoz Mahaldek tanho, sevgi mabudasi bo'lgan malikaning izlaridan bordim. Xayolan ko'zlariga astagina muloyim boqib, boqiy sevgining lovullagan o'tlari va hayajonlarni ko'rgandek bo'ldim.

Butun dunyo ahliga sevgi qasri berib ketgan va o'zi ahdiga sodiq olgan buyuk inson Shoh Jahon va malika Mumtoz Mahalni sevgisini tasvirlagan asarimni **"Marmarga bitilgan sevgi"** deb nomladim. Ushbu kitobda sevgi, muhabbat va vafodorlik shunchalar chiroyli tasvirlanganki, shunday sevgini boshqalar, ya'ni yoshlarga tilagim keldi. Kitobda Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarining beshinchi avlodi, ya'ni Boburshoh, Humoyun, Buyuk Akbar, Jahongir va uning farzandi oliybaxt Muhammad Xurram, shu bilan birga, Shohjahonning hayot yo'li va uning fidoyi sevgisi, farzandlari, saroy hayoti va farzandlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Kitobda, ayniqsa, Arjumandbonuning yoshligi, ota-onasi, ammasi Nurjahon malika, boburiylarning zurriyodi va haqiqiy vakilasi, oqila Ruqiya sulton xarakterlari juda yaxshi ta'riflangan.

Arjumandbonu kitobdagi bosh qahramonlardan biri bo'lib, uning bobosi, buyuk Akbar davrida Erondan boburiylar huzuriga kelib, ularga xizmat qilishga bel bog'lab, o'z sadoqatini izhor qiladi. Avvalo o'zi, keyinchalik o'g'li Asafxon Jahongir saroyida bosh vazir darajasigacha ko'tariladi. Asafxon vazir bor sadoqatini boburiylar xizmatiga bag'ishlaydi, oilasida turkcha tarbiyani urf qilib, turk odatlariga amal qiladi va farzandlarida o'zi farog'at topgan uchun boburiylarga sadoqat hissini tarbiyalaydi. Ayniqsa, qizi Arjumandbonu turk tilida so'zlashgan va turk millatiga oid shoirlarning she'rlarini hamda asarlarini mutolaa qilishiga o'zi bosh-qosh bo'ladi. Bu farzandini juda nozik didli qilib o'stiradi va unda malikalarga xos odatlarni tarbiyalab shakllantiradi. Ushbu tarbiya bugungi kunda ham farzandlarimizga berilsa juda yaxshi bo'lar edi. Asarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta, chunki ota va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar ochiq-oydin shakllantirilgan.

Kitobda shahzoda Xurram bilan Arjumandbonuning uchrashuvlari juda ishonarli qilib tasvirlangan, ikki yosh bir ko'rishda bir-birini sevib qolishadi va bu sevgi oxirida marmar toshlarga muhrlanib, besh asrdan beri muhabbatni kuylab "Ishq qasri" bo'lib kelmoqda.

Dunyo oshiq-lari qaysi millatga va dinga mansub bo'lishidan qat'i nazar, ular Tojmahal qasrini tomosha qilgani borishadi va ularning sevgisi tasavvurida o'zga cho'mishadi. Ular bu vaqtda o'z hayotini emas, ikki insonning sevgisi shunchalar kuchli bo'lishiga hayron qolishib, nahotki shunday sevgi bo'lsa degan savollarga javob izlaydilar.

Ushbu kitobda boburiylar tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan Nurjahonxonim yoki Mehriniso (qizlik ismi) bilan tanishdilar. Go'zal va mag'rur Nurjahon malikaning erkaliklari, kirdikorlari, saroyni bosh malikasi sifatida imzo va muhrlarga ega ekanligi va Shohjahonni o'ziga kuyov qilish yo'lidagi urinishlari shaklidagi fitnalar barisi ochib berilgan. Eng oxirida ham barcha ishni o'z rejasi asosida amalga oshirib, taxt uchun kurashlar olib borganligi va bu qadimda saroylarga xos voqelik bo'lganligini o'quvchi bilib oladi. O'z nafsoniyati oldida akasi, jiyani va shahzoda hayoti va ularning fikri u uchun mutlaqo ahamiyatsiz ekanligi ma'lum bo'ladi. Nurjahonxonim saroyda bittagina insondan, ya'ni asli kelib chiqishi boburiylar avlodidan bo'lgan Ruqiya sultondan ozgina bo'lsa ham hayiqqan.

Ruqiya sulton doimo adolat tarafdori bo'lgan, saroyda va haramdagi barcha fitnalar va turli xil yaxshi yomon ishlarni o'z qo'liga olib odilona hukm chiqargan bo'ladi. Shuning uchun shahzoda Xurram ham oqila, o'ylab mulohaza qiladigan katta onasiga ishongan va unga suyangan. Aslida Arjumandbonuga uylanishida shu onajoni asosiy rolni o'ynagan edi. Oqrabod Mahalxonim Mumtoz Mahalni oyog'ini atay kuydirib qo'yganda uni qattiq jazolaydi. Ruqiya sulton kelinlarni bir ko'rishdayoq kimligi va Ichida qanday fikrlar borligini bilib olar edi.

Kitobda kundoshlarning hiylalari, ularning mudhish kirdikorlari, hatto bu holatlar o'z farzandlarining umriga zomin bo'lishi mumkinligi ham ularni mutlaqo cho'chitmaganligini ko'rsatadi va ochib beradi. Qahramonlarning turfa xil xarakterlari kitobni o'qigan sayin ochilib boradi. Ushbu kitobda sevgi vafodorlik va muhabbat atalmish buyuk tuyg'ular tug'yonida shakllangan. Mazkur asarda qo'limdan kelganicha muhabbatning qanchalik samimiy, buyuk hamda abadiy ekanligini ko'rsatishga harakat qildim, insonlar sevgi orqali asrdan asrga yaxshilik, insoniylik odatlarini olib o'tishi mumkinligini birinchi o'ringa qo'ydim. Kitobda boburiylar avlodlarining naqadar mamlakat, xalq tashvishi uchun jon kuydirishini asoslab berishga uringanman. Shuningdek, Shohjahon o'z xalqini va o'z sevgisini umri qadar asrab, avaylab olib o'tganligi aks ettirdim.

Asarda Jahongirning hayoti va murakkab qismati, ma'naviy olami, ruhiy kechinmalari, shodlik va iztiroblari ham realistik, ham romantik ijod usulida tasvirlangan. Shoh Jahonning vafodorligi, chekkan azoblari muallifning tushida Mumtoz Mahal bilan suhbat shaklida berilganligida ko'rinadi. Asarda bizning bundan to'rt asr oldingi, avlodlarimiz o'z Vatanidan olislarda qolib o'zga yurtlarni vatan aylab, shu yurt va xalq taqdirini o'ziga boylash bilan cheklanmay, muhabbat va ishqni eng buyuk timsolga aylantirgani tasvirlanadi. Boburiylar va ularni avlodlari haqida o'qiganimizda hali biz bu buyuk avlod va ularning tarixini qanchalar kam bilishimizni his etishimiz mumkin, shu sababli hali bu mavzuda qator-qator asarlar yozilishi davrning muhim talabi bo'lib qolmoqda.

Yillar davomida Boburiy malikalar hayoti bilan tanishdim va ularning malika bo'lsa ham ayanchli, og'ir hayotlari haqidagi haqiqatlarni xalqqa yetkazish uchun bir qator asarlar yaratdim. Masalan, Shoh Jahon va Mumtoz Mahalning farzandi

arjumandi Jahon Oro begim haqida bir roman yozdim va unda malika deb bilgan shaxslarimizning hayotlari qanchalik og‘ir kechganligini kitobxon bu kitoblarni o‘qish orqaligina bilib oladi. Asarning nomi esa **“Jahon Oro begim yoki sohibat az-zamona”** deb nomlanadi.

Bunday asarlar bizning o‘quvchilar uchun, ayniqsa, yoshlarning o‘zlari anglashlari uchun juda zarur. Jahon Oro begimni o‘z vaqtida saroyda oqilona fazilatlar va oddiy xalqqa munosabati uchun Sohibat az-zamona yoki Podshohbegim deb e‘zozladilar. Malika Jahon Oro begim turmushga chiqmay, butun umrini otasi va to‘rt ukasi va ikki singlisi uchun baxshida etadi.

Boburiy malikalarning eng kichigi, eng erkasi va suyukligi Jahonaro xonim haqida ham alohida yozishga jazm qildim. Jahonaro malikaning ota-onasiga va ukalariga bo‘lgan buyuk muhabbatini so‘z bilan aytib, ado qilib bo‘lmaydi. Chunki, bu shirin qizaloq Shoh Jahon va Mumtoz Mahalday oyning aslida ikkinchi, to‘ng‘ichining vafotidan so‘ng, katta farzandi bo‘lib qolgan edi. Shu malikaning hayot yo‘li boshqalarga ibrat bo‘lgusidir.

Ammo zalvorli tarix sahifalarida bu malika haqida juda kam ma‘lumot saqlanib qolgan, butun umrini ota-onasi va ukalari xizmatlariga baxshida qilgan go‘zallikda osmondagi oyni o‘z husni bilan lol qoldirgan, ko‘nglida osmon-osmon orzulari pinhona qolib ketgan bir Boburiy malikayi Jahon haqida o‘jizgina qalamimizni tebratishni orzuladik.

Orzuga ayb yo‘q deganlaridek, boburiylarning eng ulug‘laridan biri Shoh Jahon va Mumtoz Mahalning eng ikkinchi, ammo to‘ng‘ich kabi bo‘lib qolgan qizalog‘i, bolasi, orzu umidlari va sevinchlarining manbayi bo‘lgan shirin qizaloq haqida XXI asrda yashab, o‘z tarixini bilishga uringan va ajdodlari bilan faxrlanish hissini qalbida tuygan o‘quvchilarimga bosh egib ta‘zim qilgan holda kompyuter qoshida boshimni egib mehnat qilishga tushdim.

Dunyo ahliga besh asrkim muhabbat darsidan sabog‘ berib, besh asrkim sevgi-muhabbat ko‘chalarida bosh yo‘lovchi bo‘lib ketib borayotgan, tiriklardan tirikroq, ulug‘lardan ulug‘roq insonlar Muhammad Xurram va parivash Mumtoz Mahalday malikaning ikkinchi farzandlari ko‘zining oqi-qarosi, sevgi bog‘laridan gul o‘ynab, mehr-u muhabbatga to‘yib tug‘ilgan erka qizning ismi shariflari qayta-qayta o‘ylanib, ismlar ichidan saralanib qo‘yilgan Jahon aro xonim bo‘ladilar.

Podsho otajoni va malika onajoni mehr-u muhabbat bog‘laridan mayin sabolarga mast bo‘lib, mehr ufurgan ko‘zlari shodlikdan charaqlab, hissiyotlardan jo‘shib, bir-birlarining visolidan bahramand bo‘lib, baxt nashidasini terib yurganlarida dunyoga kelib ota-ona sevinchiga sevinch qo‘shgan shirin farzandlardan bosh farzand bo‘ldi. Bu ikki yosh go‘yo dunyoda sevgi sharobini faqat o‘zlari sipqorayotgandek, go‘zallik va umid bog‘larida esgan nasim sabolardan erkanib gul tergan visol bog‘larida gullar atriga mast bo‘lishdilar, mehr-u muhabbatga to‘yib go‘zal Hindistonning gullarga to‘lgan chamanlarida oyu-quyoshday bir biriga intiq bo‘lib yurgan onlarning mevasi Jahonaro begim bo‘ldi.

Quyosh nuriga chayib olgandek tarovatli, turfa gullarning shabnamlaridagi tonggi billurlarga yuz yuvgan bu farzand, Hind elining shohu-shahanshohi, olamga

mashhur Muhammad Xurram va husn bobida tengi yo‘q malika, asli ismi Arjumand Bonu bo‘lgan, keyinchalik saroy malikasi bo‘lgandan so‘ng qaynotasi podsho Jahongir tomonidan Mumtoz Mahal deb, ulug‘lanib, ya‘ni saroyning ko‘rki degan, qutlug‘ nom berilgan malikaning ikkinchi farzandlari edi. Bu farzandning tug‘ilishi dillarga quvonch bag‘ishladi, har bir ota-ona birinchi farzandini qanchalar sevs va erkalasa, ular uni undan ham ortiqroq sevdi va erkaladilar. Bu o‘rinda hazrat Alisher Navoiyning bir to‘rtligini keltirsak bo‘ladi deb o‘ylayman.

Jondin seni ko‘p sevarman, ey umri aziz,
Ondin seni ko‘p sevarman, eyo umri aziz.
Har neni-ki sevmog‘ undan ortiq bo‘lmas,
Ondin seni ko‘p sevarman ey umri aziz.

Muhammad Xurramni Mumtoz Mahalga bo‘lgan sevgisi nihoyatda kuchli, quyoshdek haroratli, sahrolardek keng va bepoyon, xandon pista kabi eng murakkab, og‘ir sharoitlarda ham ildizlari yerga chuqur va ketgan mahkam joylashgan hamda yashil bo‘lib o‘sa oladigan edi. Chunki, Jahongir qachonlardir davlat ishlaridan qo‘li sovugan bo‘lib, sharob va ziyofatlar unga xush kelardi.

Boburiylarni odatiga ko‘ra bo‘lajak taxt vorislari albatta boburiylar xonadonining qiziga uylanishi zarur edi, shuning uchun Muhammad Xurram birdaniga Arjumand Bonuga uylanishi mumkin emas edi. Chunki, boburiylar taxtiga podshoh bo‘luvchilarning qonida ota-onasi boburiylardan bo‘lishi bo‘lishi belgilangan edi. Shuning uchun o‘g‘il farzandlar doimo boburiylar xonadonidan bo‘lgan qizlarga uylantirilgan. Muhammad Xurramning o‘zi ham o‘yga toldi, axir bu odatni qanday qilib chetlab o‘tadi, balki otasi Jahongir vaziri Asafxonning qiziga ruxsat berar deb o‘yladi va boshini egib ota podshoh huzuriga yo‘l oldi. Saroyga borguncha mard, qo‘rqmas bo‘lib borayotgan Muhammad Xurramni qandaydir bir umidsizlik chulg‘ab oldi, chunki bu ishga otasi ko‘nmasa, onasi hayot ammo yordam bera olmaydi. Malika Nur Jahon o‘zini uncha xushlamasligini ham bilardi, otasi esa malikadan o‘tib qattiq qaror qabul qilmaydi. Nima kutmoqda ekan degan xavotir uning sevgidan azoblangan yuragiga yana notinchlik olib keldi:

“Taxtga qoshiga kelganida otasiga salom berib, mehri iyib yuzlariga tabassum yugurdi. Kelib tiz cho‘kib, ta‘zim qildida, otasining muborak qo‘llarini ko‘zlariga surtdi va o‘rnida turib otasini mehr bilan quchoqladi. Bir pas otasining ko‘ksiga boshini qo‘yib turdi. O‘g‘lining bunday odati yo‘qligidan podsho hayron qoldi, bugun biram mehribon va muloyim bo‘lib kelibdi, deya hayron qoldi Jahongir.

Jangu-jadallardan qaytib kelganida doimo soqollari o‘sib ketgan, yuzidagi changlar o‘ziga yarashgan, vujudidan kuch, navqironlik, shijoat va mamnunlik ufurib turar edi. Huzurida Muhammad Xurramni shahzoda kiyimida ko‘rib, o‘zining yoshligi, o‘n to‘qqiz yoshligi yodiga tushdi. Eh, deya podshoh og‘ir xo‘rsindi.

Otasining xo‘rsinganini eshitib Muhammad Xurramni yana savol bosdi, nega otam xo‘rsindi? Nima kami bor ekan, yoki men biron joyda bir noto‘g‘ri ish qildimmikan deya xavotir oldi”.

Qarang-a ikki avlod o‘zicha bir narsani ikki xil fikrlamoqda, har kim o‘z

tasavvuridan kelib chiqib o'ylayapti!

“Ota ham farzandini mehr bilan yoniga o'tirg'izdi va bolasidan hol ahvol so'radi.

Muhammad Xurram otasining mehrli so'zlaridan so'ng, biroz o'ziga keldi va otasiga qarab ozgina uyalib, yerga boqib, podshohim bir arzim bor sizga dedi.

– Jahongir shoh, xo'sh ko'ngillari nima tilaydilar, aytsinlar shahzodam, dedi kulimsirab.

Otasining malika Nur Jahonni sevib uylanganini bilgani uchun ham meni ham tushunar degan umid bilan, yerga boqib, men bir qizni yoqtirib qoldim dedi sekingina.

Podshoh uchun bu so'z nihoyatda yoqimli bo'ldi va xoxolab kuldi.

– Mayli, akangiz Doro Shukohni uylantirib qo'ydik, mana farzandli ham bo'ldi. Kimlarning farzandi ekan, otasini bizlar taniymizmi? Kim ekan, sizning didingizga ma'qul bo'lgan barno qiz, deya savol berdi.

Otasining takror-takror savollaridan biroz o'ziga kelgan Muhammad Xurram biroz jim turdi va chuqur nafas olib, ha taniysiz degan javobni berdi. Ammo birdaniga vaziri a'zam demadi, chunki otasi ko'nmasa degan xavotir uni qiynardi”.

Asafxonning asli kelib chiqishi erondan bo'lib, forsiylardan edi, ularning boburiylarga aloqasi yo'q edi. Shahzodani qiynagan narsa, mana shu zoti-zurriyot masalasi edida. Ammo Asafxon yillar davomida boburiylarga sidqidildan xizmat qilib kelardi. Mana qariyib yigirma yillardan beri bu inson saroyda bo'lib, sodiq xizmatni bajo keltirmoqda edi. Singlisi Mehriniso malika maqomiga erishgach, Asafxon vaziri a'zam lavozimiga ko'tarildi.

Jahon Oro begim Shoh Jahon va oliy maqom malika Mumtoz Mahalni katta qizi bo'lib yoshligidan nihoyatda yaxshi tarbiya oladi. Bu qizaloqni tarbiyasi bilan o'z davrining bilimli va dong'i chiqqan ayollari shug'ullanganlar. Bolaligidan turk, fors, arab va hind tillarini yaxshi bilib olgan, shoh qizi bo'lsa ham, erkananib ketmagan qobil farzand bo'lib katta bo'ldi. Qizining tarbiyasiga ko'proq onasi oqila Mumtoz Mahal katta e'tibor beradi.

Mumtoz Mahal begim vafot etgan vaqtda Jahon Oro begim o'n olti yoshga kirgan edi va bolaligidan katta opa sifatida ukalari va singillariga mehribon bo'lib katta bo'lgan, onasi vafotidan so'ng onalik qilish Jahon Oroning chekiga tushadi. Ta'riflarga ko'ra, Jahon Oro begimni ismi jismiga monand bo'lib, nihoyatda go'zal, oqila, aql-idrokda va ilm-u odob bobida yakto bo'lib oddiy xalqni eshitgan va ular bu malikaning huzuriga kelib o'z tashvishlariga yordam olib ketishgan edilar. Saxiyliги va xojatbarorligi bilan el og'ziga tushab saroyda “Sohibat az-zamona” deb ulug'lanadi, keyinchalik otasi yonida bo'lib, davlat boshqaruvida va qurilishda ishlarni to'g'ri boshqargani uchun “Podshoh begim” degan unvonga ham ega bo'ladi.

Boburiy bobolariga o'xshab malika Jahon Oro yaxshigina g'azallar bitgan va o'zidan keyin “Risolayi sohibiya” (Do'stlik haqida risola) asarini qoldirdi. Bu asarida Malika boburiylarga ota meros ziyoratgoh avliyosi Salim Chishtiy haqida ma'lumotlarga e'tibor beradi.

Shoh Jahon katta qizining onasiga o'xshab aql bilan ish olib borgan uchun unga ko'proq ishongan, sevimli xotini Mumtoz Mahaldan qolgan barcha boylik va mol-mulklarni shu qiziga sovg'a qildi. O'zi yashagan davrni hisoblariga yoki

ma'lumotlariga ko'ra Jahon Oro saroydagi eng boy ayollardan biri bo'lganligini ko'pgina tarixchilar qayd etib ketishgan. Sekin asta malikani saroyda obro'-e'tibori ortib, onasi Mumtoz Mahal begimning mavqeyini egallaydi.

Go'zal fazilatlariga ega bo'lgan Jahon Oro begim podshoh oilasida onasidan keyin aka-ukalarni toji-u taxt o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf qilish uchun tinimsiz harakat qilgan. Ukasi Avrangzeb xiyla bilan taxtga ega bo'lib, ya'ni akasi va ukalarini o'ldirib, otasini Qizil qal'ada sakkiz yil qamoqda saqlaydi, mana shu davrda qariyb holdan toygan ojiz va g'arib bo'lib qolgan otasini Jahon Oro begim o'zi parvarishlaydi. Yig'lab, ikki ko'zi ko'r bo'lib qolgan otasini ovqatlantiradi, Qur'oni Karimdan o'qib beradi va onasini qasri ko'rinib turadigan deraza oldiga yetaklab borgan.

Jahon Oro begim otasining mamlakatini taxtga o'tirgan ukasi Avrangzebga to'rtga bo'lishini taklif qiladi, ammo Avrangzeb bu taklifni qabul qilmaydi, balki jahli chiqib opasini ham qamoqqa tashlaydi. Oiladagi toju-taxt, boylik ustidagi mojaralar oldida ojiz qolgan malika o'zini mahbus va g'arib otasi xizmatiga bag'ishlaydi

Otasi Shoh Jahon yigirma yil davomida Toj Mahalni qurish jarayonida Jahon Oro otasi yonida bo'ladi va qurilish ishlarini yaxshi egallab oladi. O'zi katta mablag'ga ega bo'lgani uchun Hindistonda katta bog'lar yaratadi, machit va madrasalar qurdiradi, oddiy xalqni farzandlarining ilm olishi uchun sharoit yaratib beradi. Boburiylarga o'xshab tinimsiz kitoblar yig'adi. Turk va hind millati va ularning dinini ayirmaydi, chunki o'zini ham qonida hind qoni borligini balki indamasdan tan olgandir.

Jahon Oro begim oradan yillar o'tib saroyda saltanatni boshqarishda, davlatni ichki va tashqi siyosatlari, xoriydan kelgan elchilar bilan munosabatlarda podshoh otasi yonida bo'lib o'zining aqli maslahatlari bilan yordamlashar edi. Kashmir va Loxurda ham katta obodonchilik ishlarini o'z mablag'idan olib bordi va el-yurtga faqat yaxshi xislatlari bilan ovoza bo'ldi. Hatto yaxshigina me'mor bo'lib, o'zi qurdirgan machitlarning tarxini ham chizib bera olgan. Ammo malika Jahon Oro turmushga chiqmadi, o'zini otasi, ukalari va singillari uchun qurbon qildi.

Tarix zarvaraqlarida malika bir yigitni sevgani, ammo bu yigit oddiy oilaning farzandi bo'lganligi uchun unga turmushga chiqa olmagan haqida kam bo'lsa-da ma'lumot uchraydi, chunki saroy udumlariga ko'ra malikalar faqat shahzodalarga turmushga chiqishi kerak bo'lgan.

Ushbu asarda bugungi yoshlar uchun oila muqaddasligi, otani ulug'lash va ota-onaga xizmat qilish farzandning oliy burchi ekanligi haqidagi tushuncha ilgari suriladi. Onasining vasiyatini unutmay, butun umr oilani birlashtirishga harakat qiladi. Malika Jahon Oro Hindistonda boburiylar saltanatini uzoq davr saqlab qolish yo'lida jon fido qilgan ayol malikalardan biri hisoblanadi. Butun umri davomida Boburiy bobolari an'analariga sodiq qoldi, Hindistonning go'zal va obod bo'lishi uchun mablag'larini ayamadi, mamlakatda tinchlik saqlashga harakat qilib, ukasi Avrangzebni ham xalqqa yaxshilik qilishga undab keladi. Umri davomida malikalarek dabdabali emas, oddiy hayotni yashadi, hatto o'lganida qabrini oddiy holda bo'lishini vasiyat qiladi va mayli mening qabrimda faqat maysalar o'sib tursa bo'ladi deb so'raydi.

Malika Jahon Oro obrazida biz oddiy turkona tarbiya olgan oddiy va kamtar

Boburiy malikani ko'ramiz. Bugungi g'alvali zamonda yashayotgan insonlarga boylilik, toj-u taxt aslida hech nima ekanligini, insonning o'zi qalban boy bo'lsa, mana shuning o'zi yetarli ekanligi haqida tushuncha beradi.

Asarda malikaning murakkab qismati, ma'naviy alami, ruhiy kechinmalari, shodlik va iztiroblari ham realistik, ham romantik ijod usulida tasvirlangan. Asarda romantizm ruhi Boburiy malikaning oila uchun jonkuyarligi Boburiy saltanati uchun fidoiyiligi, vafodorligi, chekkan iztirob va azoblari butun asar davomida ko'rinadi. Ayrim kamchiliklariga – til boyligi yetishmagan o'rinlariga qaramay, asar qiziqish bilan o'qiladi. Asarda olis Hindistondagi boburiylar va ularning olib borgan davlat tizimi va shu davrlarga oid ma'lumotlar o'ziga xoslik bilan tasvirlanadi. Ushbu kitobni o'qigan o'quvchi o'ziga mutlaqo notanish bo'lgan kamtar va fazilatli yana bir Boburiy malika Jahon Oro begim bilan yaqindan tanishadi va bu sulolaning fidokorona xizmatlarni o'rganib qalblarida g'urur tuyg'ulari toshadi va boburiylarni o'rganish bizga faxr ekanligini his etadi.

Yana bir narsaga jur'at qildimki, bu shoira Zebunniso haqida bir asar yozishni dilimga tukkan edim, chunki bizda bugungi kungacha shoira Zebunnisoning bir necha dona g'azali o'zbek tiliga tarjima qilingan, qolgan asarlari hatto tarjima qilinmagan, aslida bu shoira biznikdir! Malika va shoira Zebunniso haqidagi kitobim **“Zebunniso begim”** deb nomlanadi.

Shoira Zebunniso Boburiy malikadir, ammo bugungi kunda she'rlarining fors tilida va rus tilida tarjimalari bor, ammo o'zbek tilida tarjimasi yo'q, hatto o'zi haqida ham tuzuk-quruq ma'lumotlar uchramaydi. Mana shu narsalardan alamda bo'lib, ko'zimda yosh bilan malika va shoira, ammo malikadek yashamagan, yashayolmagan, Hindistonda uzoq hukm surgan boburiylar davri adabiyotining yirik vakilasi va Boburning yettinchi avlodi bo'lgan Zebunniso begimning ibratli hayot yo'li, ijodi hamda haqiqat va afsonalarga to'la murakkab taqdiri haqida batafsil hikoya qilingan bir kitobni yozdim.

Zebunniso begim siymosi o'tmish boburiylar davri hayotining go'zallik, ezgulik, shu bilan birga, tiriklikni iymon darajasida avaylagan ma'rifat kuychisi timsoli sifatida ardoqlanadi. Asarda otasi podshoh Avrangzebni siyosati orqali turli qarama-qarshiliklarga duch kelsa-da, hamisha o'z e'tiqodiga sodiq qolgan inson sifatida gavdalantirilgan: "...hukmron tabaqa vakili ekan, ichki ziddiyatlarni bartaraf etish uchun o'z gul hayotini qurbon qilishgacha borganligi ham turli aniq dadil va manbalar asosida o'z ifodasini topgan. Asar so'ngigacha goh boburiy podshohlar, goh ularning g'animlari o'rtasidagi o'zaro to'qnashuvlarda, ota va bola o'rtasidagi kurashlarda men Zebunniso begimning o'rni va ahamiyatini to'laroq ochishga harakat qildim. Va bu shoira qalami orqali kurashish va xalq dardiga da'vo izlash, o'zi yashagan og'ir vaziyatlarda ezgulik bilan nom qoldirmoq odamzod uchun eng maqbul yo'l ekanligi yana bir karra isbotlangan.

Bobur va boburiylar haqida Gaskoyn Bemberning fikrlari

Bobur nomi sharqda tanilgan mashhur hukmdor bo'lib, u ortiqcha ta'rif-u maqtovlarga muhtoj emas. Ota tomonidan buyuk temuriylar avlodiga mansubdir. Bobur o'zini temuriylarga mansub deb bilgan va bu avlodga tegishli turk naslidan

ekanligidan mag'rurlangan va bu narsani ko'p joylarda izohlab, urg'u berib kelgan. Dastavval, ular Turkistonning shimoli-sharqida yovvoyi qabilalar bo'lishgan va ularning hayot tarzi ko'chmanchilar sifatida kechgan. Shu vaqtlar saroylarning oliy tabaqali insonlari, hozirgi O'zbekiston va Afg'onistondagi temuriylarga mansub avlodlar o'zlarni turklar deb ataganlar. Agarda bugun Bobur tirik bo'lganida uning avlodlarini mo'g'ul deb atashganlarini ko'rib dahshatga tushardi (yozuvchi Gaskoyin Bember), chunki Boburning o'zi mo'g'ullarni yomon ko'rgan.

Negadir tarixda boburiylar "mogol" nomi bilan qolib ketdilar. Mogol so'zi mo'g'ul so'zining buzib aytilishi bo'lib chiqdi. Shu davrlarda Temurbek tug'ilgan yillardan keyinroq mamlakatlarda turklar va mo'g'ullar bir-biri bilan qo'shilib aralashib ketgan edilar va ularning ko'rinishida katta farq sezilmas edi. Aslida bu ikki millat ham kelib chiqishi shimoldan kelib chiqqan (xunlar shimoldan chiqib, sekin-asta g'arbga qarab ko'chishgan). Turklar mo'g'ullardan avval o'troq aholi sifatida madaniyatli hayot boshlaydilar, yovvoyi mo'g'ullar hamon ko'chmanchilar sifatida tarqoq yashaydilar. Mo'g'ullar turklarning izidan kelib, jang qilishni ulardan o'rgandilar va turklarni mag'lub etdilar, keyingi hayotlarida turklardan ko'p narsani qabul qildilar.

Temurbek turk-barlos qabilasida dunyoga kelgan. Bobur turkcha o'zbek tilida so'zlashgan va shu tilda ijod etgan, bu til boburiylarda 1760-yilgacha oilaviy til bo'lib keldi, ular oilasida hammalari turkcha o'zbek tilini bilar edi. Qachonki boshqalardan yashirin so'zlashlari kerak bo'lsa, ular bir-birlari bilan shu tilda so'zlashganlar. Oilada barcha farzandlarga shu til o'rgatilgan va bu ana'na barcha boburiylarga xos bo'lgan. Bobur o'z kelib chiqishiga ko'ra, turklardan mo'g'ullarni ajratib bo'lmagan aralash bo'lib ketgan vaqtda tug'ildi. Barloslar chig'atoylarning bir urug'i bo'lsa, chig'atoylar kelib chiqishiga ko'ra mo'g'ullardan bo'ladi. Chig'atoy aslida Chingizxonning o'g'li. Shu davrlarda ham odamlarga o'zlarining kelib chiqishlarini aniqlashlariga imkoniyat yo'q.

Gaskoyinning fikriga ko'ra, Temurbek davr talabidan kelib chiqib, mo'g'ullarga yaqin bo'lishi zarur edi, chunki uning otasi podshohlardan emas edi, ya'ni mo'g'ullardan uylansa, ularga kuyov bo'lsa, u Ko'ragon unvonini oladi. Shuning uchun ham mo'g'ullardan bo'lgan Qozonxonning qiziga uylanadi va Ko'ragon mansabiga ega bo'ladi. Bu shu zamonda kerak edi. Xotining kelib chiqishi Chingiziylar avlodidan bo'ladi. Samarqand shahridagi Temurbek qabriga yozilgan "Nasabnoma"da uning qaysi tomondan Chingizxonga (Alanquva – oy yorug'idan homilador bo'lgan qizdan tug'ilgan), ya'ni Buzanjir (Buz-zanjir)ga uylanishi bo'yicha tegishlilik haqida batafsil ma'lumot keltirilgan. Oradan yuz yillar o'tgandan so'ng Bobur o'zini buyuk bobosiga tegishli turk (bugun o'zbek deb ataladi) deb ataydi. Ammo yana yuz yillar o'tgandan so'ng Bobur avlodlarini Hindistonda mo'g'ul deb atadilar. Ikkinchi bir ma'nosi shuki, mo'g'ul so'zi Hindistonda ulug'larga nisbat berilib aytiladigan so'zlardan biri bo'lib qolgan. Aslida XVII asrning birinchi yarmida Hindistonga kelgan yevropaliklar "mogul" so'zini sunnat qilinganlar deb tushunishgan yoki barcha musulmon millatiga mansub mansabdor insonlarga aloqador deb bilishgan.

Shu asrning ikkinchi yarmida Hindistonga kelgan yevropaliklar "mogul"

soʻzini terisining rangi oq boʻlgan insonlarga nisbatan qoʻllashgan, chunki saroylarda, xonliklarda xizmat qilishga doimo oq tanli insonlar tanlab olingan. Koʻpgina boburiy aslzodalar Kashmir qizlariga uylanishgan. Kashmirliklardan tugʻilgan bolaning tanasi terisi oppoq boʻlgan. Yana siz kashmirda boʻlgan boʻlsangiz, Kashmir qizlarining nihoyatda goʻzal ekanligiga iqror boʻlasiz. Shunday holatlar tufayli 1666-yillardan soʻng boburiylar sulolasi oʻzlarini “mogul” deb atashlariga koʻnikib ketadilar. Bu soʻz ularni ulugʻlar avlodidan ekanligidan dalolat berar edi. Chingizxonning yovuzliklari haligacha ogʻizdan ogʻizga oʻtib saqlanib qolgan edi, shuning uchun Bobur moʻgʻul soʻzini yomon koʻrgan, chunki moʻgʻullar johil, yovvoyi, koʻchmanchilar boʻlishgan. Moʻgʻullar shu vaqtlarda turklarga qaraganda nisbatan madaniyatsiz va yovvoyi holda boʻlishgan. Hatto Boburning oʻzi xohlamasa ham, yevropaliklar bu saltanat boshqaruvchilarini oʻz xulosalaridan kelib chiqib, Moʻgʻullar saltanati deb taʼrifladilar, ularning boyligiga London va Amsterdamda turib ichi kuyardilar, oxir-oqibat Buyuk Moʻgʻullar degan soʻz oddiy shevalarda oʻrnashib qoldi.

Zahriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda tugʻildi. Uning otasi Umarshayx Fargʻonaning hukmdori boʻlib, boʻyi past kishi boʻlgan, bu shahar juda noz-neʼmatga boy va moʻl hudud boʻlib, Samarqandning sharqida joylashgan edi. 1494-yilda kutilmagan fojeadan soʻng, oʻn bir yoshlik shahzoda valiahd Bobur kutilmaganda otasi oʻrniga taxtga oʻtirishga majbur boʻldi. Boburning yozib qoldirishicha, otasi past boʻyli, toʻla gavdali, sersoqol va yuzlari goʻshtdor inson boʻlgan va judayam kaptarlar uchirishni yoqtirgan. Kunlarning birida gavdalari toʻla boʻlgan hukmdor Umarshayx chala buzilgan kaptarxonada sevimli kaptarlarini ovqatlantirayotgan paytda tomning bir chekkasi oʻpirilib tushib ketadi va u halok boʻladi. Kaptarxona jarning yoqasiga qurilgan edi, shu vaqtda tom ayrilib uzilib tushadi. Umarshayx shu tariqa, kaptarlari bilan “burgut”ga aylanib bu dunyodan uchib ketadi. Aslida bu holat ham uyushtirilgan boʻladi.

Bu vaqtda Bobur qaysi bir viloyatda podshohzoda qarindoshlarinikida mehmonga bormoqchi boʻlsa, darhol xabar berilgan va u tezlik bilan yetib kelgan. Bu vaqtlarda Temurbekdan keyin yuz yillar oʻtgan boʻlsa ham, uning davlati barcha temuriylar shahzodalar oʻrtasida mayda-mayda boʻlaklarga boʻlinib ketgan edi. Ushbu davlatchalarni boshqarayotgan temuriyzodalarning har biri bu mamlakatni men boshqarishim kerak degan fikrda edilar, bu podshohzodalar Boburga togʻavachcha yoki amakivachcha edilar. Ularning har birining qonida buyuk Temurning qoni oqardi. Amir Temurbekning mamlakati Dehlidan Oʻrta Yer dengizi mamlakatlarigacha, Fors qoʻltigʻidan Volga boʻylarigacha boʻlgan katta maydonni egallagan edi. Bugungi kunga kelib, uning avlodlari shunday katta mamlakatni saqlab qololmadilar va uni maydalab oʻnlab hukmdorlarga aylandilar. Endilikda mamlakat hududi ham ancha qisqarib kichrayib qolgan edi.

Temurbek davlatining poytaxti Samarqand bu mamlakatlarning eng shimolida joylashgan. Poytaxtdan bir yuz ellik mil olisda Buxoro shahri turardi. Samarqanddan ikki yuz mil olisda yashil va serhosil, yoqimli goʻzal vodiy Fargʻona Boburning yozishicha, “don va mevalarga” toʻla shahar edi. Uning yozishicha, shu davrlardagi “Fargʻonadagi fazanlar (qirgʻovul)shunchalik katta ediki, bitta fazanni toʻrt kishi boʻlib

iste'mol qilishganda, uni 13 sabzavot va guruch bilan birga qo'shib pishirganlarida, kattaligi va yog'ligi uchun yeb tugata olishmagan. Temuriylar davlatining shimoliy qismida hammaga ma'lum bo'lgan Turkiston (Transoksiana) bo'lib, undan Oks daryosi, bugungi Amudaryo oqib o'tardi.

Bu daryo sobiq Sovetlar Ittifoqi va Afg'onistonning o'rtasidan oqib o'tgan. Oks (O'g'uz) daryosining janubiy tomonida Temurbekning katta hajmdagi hududlari bo'lib, Turkiston hududiga qaraganda, bular anchagina jangovar edi. Hindikush dovonining og'ir yo'llaridan o'tgach, yana ikki yuz mil yurilgach, Kobul shahriga kirib kelinadi. Bu shaharning g'arbiy tomoni tog'lar bilan qoplangan bo'lib, sekin-asta pastlashib boradi va issiq quyosh qizdiradigan kengliklarga tushiladi, shu joyda nihoyat katta, go'zal Hirot vodiysidan chiqish mumkin. Bu joylar Temurbekka qarashli hududlar oldida juda kichik, ammo maydoni Ispaniya va Portugaliyani qo'shib hisoblaganda shuncha bo'ladi. Shunday katta hududlarni temuriy shahzodalar o'zlariniki deb bilishgan, chunki bu hududlar bobolaridan meros qolgan edi.

Bu vaqtda g'oliblik nashidasi kutilmaganda juda tez va qaltis edi, ya'ni gohida Bobur ulug' Samarqanddek shaharning podshosi bo'lib taxtda o'tirgan bo'lsa, ba'zi vaqtlar tunashga joy topmay, oylab sarson-u sargardon kezman. Yashashga joyi hamda yeyishga noni bo'lmagan paytlarda boriga qanoat qilib umr kechirgan, mana shunday kunlarni Bobur boshidan kechirgan. Boshqacha qilib aytganda, juda hayron qoladigan voqealar juda tezlik bilan bo'lib o'tgan, ba'zan g'alaba, ba'zan mag'lubiyat uni quvib yurgan. O'zining jahongashta umrida turli holatlarga doimo tayyor turgan. Bobosining poytaxti Samarqandning chiroyli imoratlari, asrlarga tengdosh mustahkam qo'rg'onlari doimo Boburning diqqatini o'ziga tortib kelgan, bu muqaddas shahar va bobosining poytaxti nevaralar va barcha avlodlar uchun doimo ulug'vor va sirli bo'lib tuyilgan. Ularning har biri Samarqandda hukmdor bo'lsa, ularni barcha Temuriylar tan olishini bilishgan. Samarqand hukmdorligini ular taqdirning sovg'asi deb bilganlar. Shuning uchun barcha temuriylar Samarqandga intilib yashaganlar va uni egallashni umid qilganlar. Bobur aslida Samarqandga qo'shni bo'lgan Farg'onada umrining o'n uchinchi va yigirmanchi yillarida Samarqand taxtiga ikki marta o'tirgan, shuning uchun u bu shaharni juda yaxshi ko'rgan. Boburning dastlabki hukmdorlik yilida Samarqand taxtida o'tirishiga qulay sharoitlar vujudga kelgan. Ammo hukmronligining birinchi yarim yilida Samarqandda ikki hukmdor o'ladi va mamlakatda fuqarolar urushi boshlanib ketadi va yoshgina Bobur hali siyosiy ishlarda tajribasi yo'qligidan bo'lsa kerak, 1496-yilda bu mamlakatni qiynalsa-da tashlab chiqib ketadi.

Boburning niyati g'arbiy tomondan turib afsonaviy shaharni ishg'ol qilish edi. Bu vaqtda Bobur bor-yo'g'i o'n uch yoshga to'lgan bo'ladi. Samarqand ostonalarida o'zining ikkita amakivachchalarini uchratadi, ular ham Samarqand hukmdorligini orzu qilishar edi. Ma'lum bo'lishicha, ulardan biri Samarqandda sevgan qizi yashagani uchun bu shaharni qo'lga kiritishni maqsad qilib qo'ygan. Bu ikki amakivachchalar o'z kuchlarini birlashtiradi va shahzodalardan biri Samarqand taxtiga o'tiradi. Shu paytda Samarqandga qattiq qish keladi va shaharni qamal qilib turgan Boburning jangni to'xtatishiga to'g'ri keldi.

1497-yilning noyabr oyida o'n to'rt yoshlik Bobur yetti oylik qamaldan so'ng

Samarqand taxtiga o'tiradi. U hali yosh va tajribasiz shahzoda edi. Bobur o'zining yangi poytaxtini o'rganishga kirishadi va tezlik bilan shahar qo'rg'onlarining poydevorlarini ko'zdan kechirib, barcha maydonni qadamlab o'lchab chiqadi. Qo'rg'onning uzunligi ming yaddan ortiq ekan. Bobosining maqbarasiga borib ziyorat qiladi, Temur va nevarasi Ulug'bek qurdirgan va tilla bilan bezalgan madrasalarni ko'rib chiqadi va uning uch tomoni ochiq qolganini ko'radi. Ulug'bek qurdirgan shu zamonlarda tengi yo'q katta rasadxonani o'rganadi va o'z avlodlarning buyuk ishlar qilganiga o'zi amin bo'ladi. Bu rasadxonada temuriyzoda Ulug'bek davrida yulduzlarni o'rgangan va tarixiy ilmiy ishlar yozgan (Yormatova D., "To'rt ulus tarixi").

Gohida bunday janglardan qaytishda ular turli xil bosqinchi to'dalarga duch kelib, o'rtada qonli to'qnashuvlar bo'lib o'tar edi. O'ldirilgan insonlarning kallalarini kesib, otni egariga bog'lab, o'lja sifatida olib ketishar edi. Yozganlarida Bobur gohida yomon ishlarni ham yashirmagan, yozganlari xalqqa borib yetishini bilsa ham qilgan xatolarini tan olgan. Yana uning yozishicha "Avg'on Berdi nonushta vaqtida qaytib keldi va bir afg'onni boshini tandan judo qilganini ta'kidlab, ammo kallani qayerdadir tushirib qoldirganini aytib berdi".

Bobur yana qancha urinishlardan so'ng ukasi Jahongirdan Farg'ona saltanatini qaytirib oladi va uning hayotida ancha yaxshi kunlar boshlanadi. Tinch hayot boshlanganida onasi va boshqa ayollarni olib keladi. Chunki bu vaqtda vaziyat og'irligi sababli yashashga sharoiti bo'lmagani uchun onasi, opasi va boshqa ayollar qarindoshlarnikida yashab turar edi. Boburning qarindosh ayollari ham sharoit bo'lmaganidan tarqalib ketgan edi. Aslida shahzodaning ishlari yaxshilangandan so'ng qarindosh ayollari uni qayerdadir kutishlari lozim edi. Bobur bu vaqtda o'n olti yoshga kirgan edi va uning uylanishi lozim bo'lgan qizni uning huzuriga yubordilar. Bu qiz unga amakivachcha bo'ladi, ularning otalari bu nikoh haqida bir necha yillar oldin kelishib olgan edilar.

Bobur Samarqand haqida o'ylaganida boshqacha o'zi o'ylaganday tasavvur qilardi va uni Samarqand xalqi yaxshi kutib oladi va quvvatlaydi deb o'ylagan edi. Sahroyi Shayboniyxonni samarqandliklar yomon ko'rishadi, begona deb bilishadi degan xayolga borib, o'zini ularga yaqin hisoblagandi, chunki Temurbek avlodidan bo'lgani uning shunday umidlari bor edi. Shunday g'ul'g'ulali kunlarning bir tunida Boburga yana bir marta omad kulib boqdi. Shayboniyxon shahar tashqarisida bog'larning birini harbiy qarorgoh qilib shu yerda yashayotgan edi. Bundan foydalangan Bobur tun qorong'usida yetmish-sakson chog'li askari bilan quyunday hujum qilib, narvon qo'yib "Sevishganlar g'ori" degan joydan shahar 20 devorini sezdirmay oshib o'tadilar. Bobur askarlari sekin Feruza darvozaga boradilar va darvozabonni bolta bilan chopib, darvoza qulflarini bolta bilan urib sindiradilar va ikki yuz chog'lik askari bilan Samarqand shahriga kiradilar. Tun bo'lgani uchun hali shahar aholisi uhlaridi, ayrim bir-ikkita savdogarlar sahar turadigan do'konlaridan boshlarini chiqarib, Boburning kelganidan xabardor bo'ldilar. U-bu tanish savdogarlar Boburga qaram bo'lishlarini va uning uchun tilovat qilishlarini bildirdilar. Bobur to'g'ri Ulug'bek madrasasi bor Registon maydoniga borib, el-u xalqqa o'zining kelganini bildirdi. Maydonga shaharning taniqli, yoshi katta insonlari yig'ilib, Boburni temuriylar

avlodidan bo'lgani uchun uni tan olishlarni bildirishib, xayrixoh bo'ldilar. Bu vaqtda Boburning ikki yuz otliq askari besh yuzdan ortiq Shayboniyxonning askarlariga qarshi turib, ulardan g'olib bo'ldilar. Qachonki Shayboniyxon voqealardan xabar topganida shaharning darvozasi mahkam bekilib yopilgan edi.

Bobur 1500-yilning butun qishini Samarqand qamalida shahar ichkarisida tinchlik bilan o'tkazdi, ammo bahorda shahar tashqarisiga Shayboniyxon qaytib keldi va Boburni kutib turdi. Bobur yana Ulug'bek madrasasi tomiga chodir qurib, tashqarida borayotgan harbiy vaziyatni o'zi boshqarib turdi. Uning xabar berishicha, tepadan kuzatish natijasida g'alabaga erishdi, chunki tepadan barcha vaziyat yaqqol ko'rinib turardi va qo'shinlarni boshqarish osonlashar edi, ularning to'plardan otgan o'qlari nishonga to'g'ri tegar edi. Shayboniyxon boshliq bir guruh qo'shinlar qanday qilib bo'lsa ham shaharni olishga harakat qilar edi. Shahar darvozalari ochilmagandan so'ng, Shayboniyxon shaharni och qoldirish uchun qamalni to'xtatmadi. Qamalda qolgan Bobur askarlari ochlikdan juda qiynaldilar, eshaklar va itlarning go'shtlarni iste'mol qilishga to'g'ri keldi, otlariga barglardan va yog'ochlarni maydalab ezib, ho'llab ozuqa sifatida berdilar. Qamal juda og'irlashib ketganidan Bobur o'zining ishongan kishilarini ham har kuni kechasi ikkita yoki uchtasini ertalab joyidan topmay qolar edi, tunda ular to'da bo'lib, devor oshib shahardan qochib keta boshladilar.

Nihoyat, Bobur Shayboniyxon bilan kelishib sulh tuzadi va sharti shuki Bobur o'z opasi Xonzoda begimni Shayboniyxonga xotinlikka beradi, Shayboniyxon Bobur, onasi va boshqa ayollarning Samarqanddan ketishiga ruxsat beradi. Kelishuvga ko'ra, bir kuni tun yarmida Bobur, onasi va yaqinlari Samarqand shahridan chiqib ketadilar. Samarqandni ikkinchi marta bosib olganida hali Bobur o'n sakkiz yoshda bo'lgan. Mana shu paytlarda Boburdan omad haqiqatan ham yuz o'g'irgan edi. Samarqanddan chiqqan Bobur qarindoshlarinikiga toshkentlik mo'g'ul tog'alarini izlab bordi, barcha qarindoshlar unga yaxshi muomalada bo'lmadi va ko'plari u bilan hatto gaplashishni ham xohlamaydi. Kambag'al qarindosh hech kimga kerakmasligini bilib, g'ururi toptalgan Bobur bu yerlardan bosh olib ketdi. Boburday insonning Hindistonga bosh olib ketishining sababi mana shu paytlardan boshlangan. Bir tog'asi yordamida unga Farg'onaning ozgina hududi tegdi, ammo, Shayboniyxonning ta'qibi bilan bu joylar ham yana uning qo'lidən chiqib ketdi.

1504-yillarda Shayboniyxon Farg'onaga o'rnashib olib, Samarqandni shu yerdan turib boshqardi, chunki u Boburga qasdma-qasd shu Farg'onada yashashni o'ziga maqsad qilgan edi. Bobur mamlakatdan chekinar ekan, o'zini nihoyatda yolg'iz va g'arib inson sifatida tasavvur qildi. Uning tarafdorlari yana kamayib ketdi va ular soni uch yuztadan oshmasdi. Oldinlari Bobur ozgina askari bilan doim ma'lum g'alaba qila olardi, bugun uning odamlari otsiz, piyoda, oddiy dehqonlarning kiyimlarini kiyib olishgan, qo'llarida ham miltiq yoki boshqa qurol emas, balki oddiy tayoqlar bo'lgan. Butun boshliq qo'shinda ikki dona chodir bo'lib, uning biri Boburning onasi uchun tikilardi. Bobur o'zining chodirini onasiga berib, o'zi ochiq havoda yotardi. Aslida uning ochiqda qolishi juda xavfli bo'lgan, ilojisizlik nochorlik, kambag'allik shu holatga olib kelgan edi. Bobur keyinchalik shunday deb yozadi: "Mening xayolimga keldiki, hech kimga men, tog'dan tog'ga uysiz-joysiz izg'ib

yurishni maslahat bermayman”. Mana uysizlik, joysizlikning oxiri: ota yurtidan bosh olib ketishga to‘g‘ri keldi.

Shunday og‘ir kunlar, ochliklar, xo‘rliklar bari bir bo‘lib, buyuk insonni olis Hindistondan o‘ziga taxt izlashga majbur qildi. Ammo Bobur qanday nochor holda bo‘lmasin, uning yana kuch to‘playotganini eshitib, o‘zlarining boshliqlaridan norizo bo‘lgan sobiq harbiylar, temuriyzodaning kuchli harbiy taktikalarni bilgan va unga ishongan askarlar u tomonga yana to‘planib kela boshladi. Mablag‘siz, cho‘ponlar o‘tovida kun kechirib yursa ham, unga ishongan askarlar topildi. Askarlar Boburning bir kuni kelib g‘alaba qilishiga ishongan, chunki uning qonida buyuklar qoni borligi tufayli, bir kun kelib u yana daho bo‘lishiga ishonishgan.

Shunday sharoitda uning harbiy kuchlari tabiiy ravishda kundan kunga oshib bordi. Ammo Bobur aql bilan o‘ylab ish ko‘rdi, o‘zini hali Shayboniyga qarshi kurashishiga tayyor emas deb bildi. U o‘ziga qulay bo‘lgan vaqtni va omadni boshqa joylardan izlash lozimligini anglab yetdi. Shunday o‘ylararo yuksak tog‘lar osha jannatmakon go‘zal Kobulga kelib o‘rnashdi. Farg‘onadan uch yuz mil uzoqlikda joylashgan, baland tog‘li yo‘llar ortidagi doimo qiyin masofa Hindikush tog‘lariaro o‘tishni taqozo qilgan va o‘ta xavfli bo‘lgan joylarda qad ko‘targan edi bu shahar. 1501-yilgacha bu shaharni Boburning amakivachchalaridan biri boshqarib turgan, ammo uning o‘limidan so‘ng shahar egasiz qoladi, chunki valiahd o‘g‘li kichik yoshda bo‘ladi, shunda fursatdan foydalangan Qandahordan temuriylarga aloqasi bo‘lmagan bir afg‘on kelib shaharni o‘z qo‘liga olgan bo‘ladi.

O‘ylab ko‘rilsa, Kobul shahri Shayboniyxon taassufidan juda uzoqda va o‘rtada katta tog‘lar ajratib turadi, ikkinchidan Samarqand va Farg‘onadagi hukmdorning oyog‘i yetmasdi bu yerlarga. Bu paytda Bobur mahalliy aholi uni temuriyligi ulug‘ avlodga mansubligi uchun qo‘llashi kerak, deb o‘zicha fikrlardi. Mana shularni o‘ylab Bobur o‘zining askarlari bilan 1504-yilda yaxshi niyatlar bilan Kobul sari yo‘l oldi, uning kelayotganini eshitgan hukmdor ozgina qarshilik ko‘rsatdi-yu, ammo tezda taslim bo‘ldi. Aslida taxt Kobulda bo‘ladimi, Samarqandda bo‘ladimi, baribir temuriylarga tegishli edi va buni hech kim inkor etolmasdi.

Aslida Bobur va boburiylar haqida qancha yozsak va qancha o‘rgansak, shuncha kam. Hali bu borada qilinadigan eng katta ishlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sida o‘rtada 16 yillik ma‘lumotning yo‘qligi. Ushbu ma‘lumotlar topilib kitob yanada to‘ldirilishi lozim, ulug‘ shohning 16 yil davomida nima ishlar bilan shug‘ullanganligi va olib borgan davlat yumushlari, ilmiy amaliy ishlari hozirgacha mutlaqo ommaga noma‘lumdir. “Xatti Boburiy” kitobi bo‘yicha ham ancha noma‘lumliklar mavjud, shuningdek, Hazrati Bobur musiqa bilan shug‘ullanib bu borada ham bir qo‘llanma yozganlar, ammo bu narsalar hali qaysi kutubxonalarda yoki kimlarnig shaxsiy kutubxonasida hammadan yashirin holda yotgandir. Bobur va Boburiy avlodi haqidagi hamma fikrlarni jamlab bo‘linmagan. Mana Boburning o‘g‘li Humoyunni o‘g‘li Akbarni butun olimlar va siyosatchilar buyuk Akbar deb ulug‘laydiar. Akbarga bag‘ishlab yozilgan “Oyinai Akbariy” kitobining inglizcha, fransuzcha, forsha va ruscha nashrlari bor. Ammo bu kitobning o‘zbekcha nashri yo‘q, agarda kitob o‘zbek tiliga tarjima qilinsa, o‘quvchilarga juda katta sovg‘a bo‘lar

edi. Faqat bu borada hamkorlar va o'z mablag'ini boburiylar yo'lida ayamaydigan fidoyi insonlar kerak bo'ladi. Xullas, Bobur va boburiylar to'g'risida hali qanchadan-qancha asarlar bitilgusidir, chunki bu avlodning olib borgan ishlari, qurib bitkazgan inshootlari, yozgan asarlari hali insoniyatga to'liq yetib kelgani yo'q, demak, izlanishlar hali uzoq yillar davom etadi.